

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ



**ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР
ДЕСТРУКЦИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚИ:
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР**

**Халқаро илмий-амалий конференцияси
илмий мақолалар тўплами**



I-қисм

Термиз 27 май 2022

<i>Умидуллаева М.У. ҚарДУ</i>	
О`smirlarda sinfni idrok etish jarayonida. oilaviy muhit va ta`lim tarbiyaning psixologik xususiyatlari. <i>TerDU Psixologiya kafedrasi o`qituvchisi Jo`rayev A.Q. Termiz shahar 10-maktab psixologi Artikova N.</i>	307
Мактабгача ёшдаги болаларга гендер муносабатлар ҳақида тасаввурларни шакллантиришда ўз-ўзини англашни ривожлантириш. <i>Пратов С.И. ТерДУ</i>	310
Мактабгача ёшдаги болаларни миллий ва маданий қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш имкониятлари. <i>Алмарданов Ж.Б. ТерДУ</i>	313
Innovatsion texnologiyalar asosida boshlang`ch ta`lim sifati va samaradorligini ta`minlash. <i>Yoqubova D. TerDU</i>	314
Тарбиянинг ижтимоий самараси. <i>Абдуллаева Г.А. Мурзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети таянч докторанти</i>	316
Savodxonlik darslarida tovushlarning o`zgarishi xususiyatlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. <i>Amirkulova Z.M. Kurbanova S.N. TerDU</i>	319
Рекламада гендер тафовутларнинг ижтимоий-психологик асослари <i>Қариш давлат университети таянч докторанти Г.Эшонқулова.</i>	321
Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining integratsiyalashgan tahlili. <i>TerDU Boshlang`ich ta`lim kafedrasining tayanch doktoranti B.T. Ismoilov.</i>	323
Talabalarda affiliativ motivatsiyani rivojlantirish. <i>Omonova N. TerDU</i>	325
Qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlar ruhiy holatining psixologik talqini. <i>Sh.R. Jumanioyova UrDU magistranti</i>	328
Ixtisoslashgan maktablarda ta`lim jarayonining o`ziga xos psixologik xususiyatlari. <i>Xasanova S.Sh. UrDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor o`qituvchisi</i>	331
Matematik amallarni tabiiy fanlar (kimyo, geografiya fizika) integratsiyasi asosida ifodalash. <i>Ziyoda Urinbayeva Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti</i>	334
Amaliy psixologik xizmatning shakllanish tarixi va hozirgi ahvoli. <i>A.P. Xolturayev TeDU magistranti</i>	335
O`quvchilarda ko`pburchaklarning yuzalarini hisoblashda to`g`ri to`rtburchaklardan foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish. <i>S.M. Islomov Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti</i>	338
Бўлажак технология фани ўқитувчиларида касбий компетенцияларни ривожлантиришнинг шарт-шароитлари. <i>О.Алмарданов ТерДУ Педагогика институти</i>	341
Болаларнинг физиологик ва психологик ривожланишда мусиқа санъатининг ўрни. <i>Н.Х.Эргашев Термиз давлат университети Педагогика институти магистранти</i>	343
Инсон онгининг шаклланиши мураккаб ижтимоий-психологик жараёнدير. <i>Ў.Ж.Абдуллаева, ТерДУ Педагогика институти</i>	345
Ёшлар ижтимоий психологиясининг моҳияти ва унинг ўзига хослиги. <i>Одинаева Мухлиса, ТерДУ</i>	347
Ёшларнинг ижтимоий психологиясидаги умумийлик ва хусусийлик тушунчалари хусусида. <i>Ш.Э.Бобомуродова Алишер Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети</i>	349
Ёшлар тарбиясида миллий қадриятларнинг ўрни ва роли. <i>Э.Х.Бобомуродов ТерДУ</i>	351
Оилада ижобий психологик муҳитни шакллантиришнинг илмий асослари. <i>Қурбонназарова О., Йўлдошова Д., ТерДУ</i>	353
Ёшлар психологияси ижтимоий феномен сифатида. <i>Хамзаев А.Т., Жаҳон тиллари университети</i>	355
Чет тилларни ўқитишда таълим технологияларини қўллашнинг аҳамияти. <i>Х.Х.Хурматов ТерДУ</i>	358
Ал-Ҳаким ат-Термизийнинг тасаввуфий-психологик фикрларига замонавий ёндашув. <i>А.Б.Қодирова ТерДУ</i>	361
Влияние предикторов личности на поведение в процессе обучения.	364

MATEMATIK AMALLARNI TABIIY FANLAR (KIMYO, GEOGRAFIYA, FIZIKA) INTEGRATSIYASI ASOSIDA IFODALASH

Ziyoda Urinbayeva

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (matematika) mutaxassisligi bo'yicha

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida integratsiya va uning ahamiyati, matematik amallarda integratsion jarayonlar, matematikani kimyo, geografiya, fizika kabi tabiiy fanlar bilan o'zaro aloqasi va ular o'rtasidagi bog'liqliklar bayon etilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: integratsiya, modellashtirish, integratsion jarayonlar.

Abstract: The article describes the integration and its importance in the educational process, the integration processes in mathematical operations, the interaction of mathematics with natural sciences such as chemistry, geography, physics and the relationships between them.

Keywords: integration, modeling, integration processes.

Аннотация: В статье описывается интеграция и ее значение в образовательном процессе, процессы интеграции в математических операциях, взаимодействие математики с естественными науками, такими как химия, география, физика и взаимосвязь между ними.

Ключевые слова и понятия: интеграция, моделирование, интеграционные процессы.

Ta'lim tarbiya jarayonida integratsiyalashgan tarbiya va ta'limning ustuvor o'rin egallashi jamiyat va ta'lim-tarbiya o'rtasida o'zaro aloqadorlikni qaror toptiradi.

Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Integratsiya fanlararo bog'liqlikdir.

Matematik amallarda integratsion jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu aqliy tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi muammosini ham hal qilish imkoniyatini beradi. [1]

"Integratsiya" so'zi lotincha "integration" - tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, fanlararo aloqalarni o'rnatish, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir.

Integratsiyaning u yoki bu darajasini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida:

- ✓ o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi;
- ✓ ota-onalarning hamda davlatning o'qish jarayoniga sarflaydigan mablag'ini iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi;

- ✓ mavzulararo integratsiya asosida o'quv-biluv jarayoni natijalarini istiqbollik qilish mexanizmlari yaratiladi;

- ✓ integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi;

- ✓ integral dasturlar asosida o'quv-biluv jarayonining iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi;

- ✓ o'quv-biluv jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi.

Matematika darslarida integratsiyalash natijasida har bir o'quvchi darsda o'z fikrlari bilan qatnasha oladi va mavzu bo'yicha chuquroq bilimga ega bo'ladi.[2]

Matematika fani og'irlik, hajm, massa, tezlik va boshqa ko'plab o'zgaruvchilarni hisoblash uchun ishlatiladi. Ular ma'lum bir stavka, nisbat, foiz yoki statistikani bilish zarur bo'lgan tadqiqotlar yoki tajribalar uchun juda muhimligi bilan tabiiy fanlarda keng qo'llaniladi. Masalan:

Matematika va geografiya

Asosiy matematik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan holda geografik xaritadan yoki hududning rejasidan foydalanishni o'rgatish mumkin emas. Matematika va geografiya o'rtasidagi bog'liqlik xaritada masofalarni aniqlash; o'lchovni aniqlash; tog' balandligini

harorat gradyanlari yoki bosim gradyanlari bo'yicha hisoblash; demografik hisoblar singari vazifalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, geografiya o'z tadqiqotlarida ko'pincha matematik usullardan foydalanadi: statistik korrelyatsiya, modelashtirish va boshqalar.

Matematika va kimyo

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda bir noma'lumli tenglamalar, 8-sinfda sistema asosida yechiladigan ikki noma'lum tenglamalar hamda 5-6-sinflarda proporsiya tenglamalar tuzish va unga doir misol-masalalarning yetarli darajada o'zlashtirilmasligi kimyo fanidan masalalar yechishda qiyinchilik tug'diradi.

Matematika va fizika

O'quvchilar fizika darslarida tenglamalar tuzib yechishga qiynaladilar. Bunday vaziyatning oldini olish maqsadida matematika darslarida aynan fizikaviy voqelik natijasi bo'lgan tenglamalarni yechish, shu bilan bir qatorda harfiy belgilashlarda uzviylikni ta'minlash kerak. Fizika o'qitishda vektor va skalyar kattaliklar ko'p ishlatiladi. Funksiya tushunchasi, uning grafigi, ikki voqelik, to'plam orasidagi munosabat, moslik, uning xossalari kabilarni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi fizikadagi funksional bog'lanishlarni tez anglaydi va fizik munosabatlarni puxta o'rganadi.

Shunday qilib, ta'limni integratsiyalash o'quvchilarda jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi, o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatlari rivojlanadi. Tabiatdagi uzviylikni fanlar orasidagi uzviylik orqali bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Ismailov, N. Karimov, B.Q.Xaydarov, Sh. Ismailov, "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash", uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2019-yil

2. G.G.Lisova, A.I.Ashtrafzyanov, T.A.Nikiforova, L.G.Prilezhaeva, N.N.Saveliyev. "Mavzu integratsiyasi ta'limni rivojlantirish manbasi sifatida" uslubiy maqolalar to'plami. ANO "Premier" o'rta maktabi. 2014-yil.

3. Brown, J. Wyatt (2010), "Design Thinking for Social Innovation", Stanford Social Innovation Review, https://ssir.org/articles/entry/design_thinking_for_social_innovation (accessed on 27 March 2018).

AMALIY PSIXOLOGIK XIZMATNING SHAKLLANISH TARIXI VA HOZIRGI AHVOLI

Xolturayev Asqarjon Panjiyevich

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Yegipet, Vavilon, O'rta Osiyo, Gresiyadan, shuningdeq jon (ruh) xaqidagi I- kitobning muallifi Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis